

# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA XORIJY TILLARNI

## O'QITISHDA ZAMONAVIY USLUBLAR.

Nazarova Nigora Erdoshovna

O`zDJTU roman-german filologiyasi fakulteti  
nemis tili amaliy fanlar kafedrasи stajyor-o`qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar davrida xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy uslublarning bir qancha samarador imkoniyatlari o'rganiladi va tahlil qilinadi. Raqamli texnologiya tushunchasi va uning chet tillarini o'qitishda qo'llanilishining turli zamonaviy usullari solishtiriladi va batafsil ko'rib chiqiladi.

*Kalit so'zlar:* vosita, axborot texnologiyalari, xalqlar, millatlar, kognitiv-kommunikativ, zamonaviy ta'limgan, texnologiya.

*Аннотация:* В данной статье изучаются и анализируются несколько эффективных возможностей современных методов обучения иностранным языкам в эпоху цифровых технологий. Подробно сравниваются и рассматриваются понятие цифровой технологии и различные современные методы ее применения в обучении иностранному языку.

*Ключевые слова:* инструмент, информационные технологии, народы, нации, когнитивно-коммуникативные, современное образование, технологии.

*Abstract:* In this article, several effective possibilities of modern methods in teaching foreign languages in the era of digital technologies are studied and analyzed. The concept of digital technology and various modern methods of its application in foreign language teaching are compared and examined in detail.

*Key words:* tool, information technologies, peoples, nations, cognitive-communicative, modern education, technology.

**Kirish:** Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda raqamli resurslarning ko'pligi o'quv jarayonining xilma-xilligi va foydalilagini ta'minlaydi va o'rganish hamda o'qitish tajribasiga rang baranglik kiritadi. Texnologik imkoniyatlar ta'limga ijobiy ta'sir qiladi: onlayn kurslar bilan professor yoki mutaxassis bir auditoriyada akademiklarning ma'ruzalarida 50 yoki 200 talabaga emas, balki bir vaqtning o'zida

60 000 talabaga dars berishi mumkin. Yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni bilim berish va kompetensiyalarni shakllantirishning o‘quv jarayoniga tadbiq etish zamonamizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosiy muammolarni hal qilish, ta’lim maqsadlariga erishishning samarali vositalarini o‘zida jam qilgan desak yanglishmaymiz. Bugungi kunda har bir faoliyat turida chet tillarini o‘rganish juda muhim, shuning borasida, xorijiy til dunyoga yaxlit nuqtai nazarni rivojlantirishga, turli xalqlar, millatlar o‘rtasida kommunikativ munosabatlar, o‘matishga, madaniyat hamda qadriyatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bu jarayonga samarali hissa qo‘sadi . Axborot texnologiyalari ijtimoiy-kommunikatsiya makonini o‘zgartirib, evristik muloqotni rivojlantirish uchun yangi shart-sharoitlarni yaratadi. O‘zaro kognitiv-kommunikativ ta’sirni kuchaytiradigan internet aloqasiga veb-forum, audio, video konferensiyalar, chat, blog, elektron pochta, elektron doska va boshqa raqamli qurilmalarning vazifasi muhimdir. Internet-muloqotning bu o‘ziga xos xususiyati chet tillarini o‘qitish jarayonida shaxsiy yoki yuzma-yuz muloqot o‘rnini bosa olmaydi, albatta, lekin shu bilan birga, ijtimoiy media an'anaviy ta’lim jarayonini Internet vositasida amalga oshirishni sezilarli darajada to‘ldiradi . Xorijiy til o‘qituvchilari bugungi kun talabalari bilan ish olib borar ekan, ularning fikrlashlari, o‘zini tutishlari avvalgi ajdodlarga qaraganda boshqacha ekanligini tan olishadi. Raqamli resurslardan foydalanish o‘rganuvchida tilga bo‘lgan qiziqishni yanada orttiradi, ongini rag‘batlantiradi va kashf qilish orqali o‘rganishga imkon beradi. Raqamli avlod katta ahamiyatga ega bo‘lib bu yoshlar dunyo aholisining taxminan 20 foizini tashkil qiladi.[1.34-52]

**Asosiy qism:** Ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘quv jarayonini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shuningdek, o‘quv maqsadlariga erishishni ta’minlaydi. Ta’limning maqsad va vazifalari shunday belgilanishi kerakki, umuman jamiyatning ta’lim maqsadlari va har bir bosqichning o‘ziga xos maqsad va vazifalari bog‘liq bo‘lishi kerak. Maqsadni ikki guruhga bo‘ladigan bo‘lsak, birinchi guruh o‘quv faoliyati uchun belgilangan maqsadlar va ikkinchi guruh talabalar uchun

maqsadli bo‘lishidir. Bu ikkala vazifani amalga oshirish jarayoni ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. An’anaviy dars ma'lum vaqt davomida o‘rganish modeli bo‘lib, o‘quv jarayoni ko‘proq o‘qituvchiga qaratilgan tomonlari, mavzuni yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat. Bunday hollarda an’anaviy darsning samaradorligi ancha past bo‘ladi va o‘quvchilar o‘quv jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanadilar [5]. O‘quvchilarda muloqot va munozara madaniyati, o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma shaklda ifodalash, mantiqiy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiribgina qolmay, dars samaradorligini oshirish hamda talabalar o‘z bilimlarini amaliy maqsadlarga qaratishida quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

**Suhbat:** Bu savol-javob usullaridan foydalangan holda dialogik ta’lim usuli bo‘lib suhbat individual yoki guruh bilan bo‘lishi mumkin.

**Boshqalarga o‘rgatish:** Shunday qilib, talabalar bir-birlariga muammo haqida ma'lumot va ma'lumotlarni o‘rgatishadi.

Davra suhbati o‘quvchilar davra stoli atrofida o‘tirib, konvertda bir- birlarining savollariga javob yozadilar (Elektron darsliklar bilan bog‘liq). Yurtimizda bugungi kunda chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish uchun talab ortib bormoqda. Bu vazifalarning yoshlari tomonidan amalga oshirilishi jamiyatning jahon hamjamiatiga integratsiyalashuvini tezlashtiradi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantiradi.

Chet tili kursining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyasiga bog‘liq. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning til bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarining yuqori saviyada bo‘lishini ta’minlaydi[2.4-11]. Zamonaviy ta’lim texnologiyasining shakli bepul ta’limdir, noan'anaviy o‘rganish va faollashtirish, metodlarni tadqiq qilish, muammolarni hal qilish, mustaqil ijodiy erkin fikrlash sanaladi.

O‘quv jarayonida chet tillarini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash quyidagilarni o‘z ichiga oladi: masofaviy ta’limning yordami bilan foydalanish, chet tillarini o‘qitishda kompyuter texnologiyalari (Internet);

talabalarning guruh va bajarilgan ishlarini tashkil etish va kompyuter nazorati (kompyuterda test topshiriqlarini bajarish), shuningdek, texnik resurslardan foydalanish (audio va video fayllar) orqali hamda tasviriy materiallardan foydalanish (tematik chizmalar, diagrammalar).

Chet tillarni o‘qitishdan maqsad nafaqat o‘quvchilarga bilim berish va muayyan nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish, balki ularning qobiliyatlarini rivojlantirishdir. O‘rganayotgan chet tiliga qiziqishni oshirish, ichki xotira imkoniyatlaridan foydalanish va o‘quvchilarning o‘z qobiliyatiga ishonchini shakllantirish. Ma'lumki, o‘quv jarayoni juda murakkab. Chet tili darslari yangi o‘quv materialini taqdim etish, uni turli mashqlar va turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llash orqali tegishli nutqiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Talabalarning sinfda faolligini oshirish uchun bir qancha interfaol usullardan foydalanish mumkin. Interaktiv metod atamasi inglizcha "interactive" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘quvchilarning ichki faolligini oshirish degan ma'noni anglatadi [3.22-44]. Ushbu usulning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ulardan ba'zilari hozirgi vaqtda aqliy hujum, biznes o‘yinlari, doska, klaster, sinkveyn, kub texnologiyasi, rolli o‘yinlar kabi interfaol usullardan keng qo‘llaniladi va o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faolligini oshiradi[4.170-174].

**Innovatsion texnologiyalar:** Innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli ta'lim jarayonlarini loyihalash va amalga oshirish orqali bilimlarni egallashni takomillashtirish usullidir. Uning asosiy maqsadi interfaol usullarni qo‘llashni talab qiladigan ta'lim jarayoniga o‘qituvchilar va talabalar faoliyatiga innovatsiyalar va o‘zgarishlarni kiritishdir.

**Raqamli texnologiyalar:** Raqamli texnologiyalar vositasida 3-5 kishidan iborat kichik interaktiv guruqlar bilan ishlash samaralidir. Interfaol usullar o‘quv jarayonida ishtirok etayotgan har bir o‘quvchining faol, erkin va mustaqil fikrlashiga asoslanadi. Ushbu usullarni qo‘llash orqali o‘rganish qiziqarli faoliyatga aylanadi. Interfaol usullardan foydalanish mustaqil ishslash qobiliyatini rivojlaniradi. Hozirgi kunda interfaol usullarning yuzdan ortiq turlari mavjudligi ma'lum bo‘lib, ularning aksariyati sinovdan o‘tgan va yaxshi natijalar bergan [5.63-71].O‘quv jarayoniga

ta'lism texnologiyasini joriy etishning muhim talablari quyidagilardan iborat: o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirishda har bir o'quvchining erkin muloqotini rivojlantirish; o'quv jarayonining e'tiborini oshirishga qaratilgan o'quvchining faolligi usullar va zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта.-М.: «Знание», 1989-80 с.б.34-52
2. Yo'ldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yecimlari //Xalq ta'limi, 1999, № 4. B.4-11.
3. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati. Xalq ta'limi, 1999,b.22-34
4. N.N. Azizzxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2003 y. 170-174 b.
5. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: 2001y.B.63-71